

MATERIKLAR VA OKEANLAR TABIIY GEOGRAFIYASI KURSINI O‘QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

Tolepov Ernazar Tangatar og‘li

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika institute “Geografiya o‘qitish
metodikasi” kafedrası assistant o‘qituvchisi

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ КУРСА ФИЗИЧЕСКОЙ ГЕОГРАФИИ МАТЕРИКОВ И ОКЕАНОВ

Толепов Ерназар Тангатар улы

ассистент преподавателя кафедры "Методика преподавания географии"
Нукусского государственного педагогического института имени Ажинияза

USING INTERACTIVE METHODS IN TEACHING THE COURSE OF PHYSICAL GEOGRAPHY OF CONTINENTS AND OCEANS

Tolepov Ernazar Tangatar uli

Assistant teacher of the Department of "Methodology of teaching geography"
of the Ajiniyaz Nukus State Pedagogical Institute

Annotatsiya: Mazkur maqolada materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi kursini o‘qitishda interaktiv metodlardan foydalanishning samaradorligi, o‘quvchilarda ilmiy tafakkur va tanqidiy fikrlashni shakllantirishdagi ahamiyati tahlil qilingan. Geografiya fanining o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarash, ekologik ong, tanqidiy va ijodiy tafakkurni shakllantirishdagi o‘rni tahlil qilinadi. Interaktiv metodlarning turlari, ularning dars jarayonidagi qo‘llanilishi hamda pedagogik yondashuvlar bilan uzviy bog‘liqligi ko‘rsatib beriladi.

Kalit so‘zlar: geografiya ta’limi, materiklar va okeanlar, interaktiv metod, pedagogik yondashuv, innovatsion ta’lim.

Аннотация: В данной статье анализируется эффективность использования интерактивных методов в преподавании курса физической географии материков и океанов, их значение в формировании научного мышления и критического мышления у учащихся. Проанализирована роль географии в формировании у учащихся научного мировоззрения, экологического сознания, критического и творческого мышления. Показаны виды

интерактивных методов, их применение в процессе урока и их неразрывная связь с педагогическими подходами.

Ключевые слова: географическое образование, материки и океаны, интерактивный метод, педагогический подход, инновационное образование.

Abstract: This article analyzes the effectiveness of using interactive methods in teaching the course of physical geography of continents and oceans, their importance in forming scientific thinking and critical thinking in students. The role of geography in the formation of a scientific worldview, ecological consciousness, critical and creative thinking in students is analyzed. The types of interactive methods, their application in the lesson process, and their inseparable connection with pedagogical approaches are demonstrated.

Keywords: geographical education, continents and oceans, interactive method, pedagogical approach, innovative education.

Kirish

Bugungi globallashuv davrida geografiya fanini o'qitish nafaqat nazariy bilimlarni yetkazib berish, balki o'quvchilarda ekologik madaniyat, ilmiy tafakkur, tahliliy fikrlash va ijodiy yondashuvni shakllantirishga xizmat qiladi. Xususan, "Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi" kursi o'quvchilarda global tabiiy jarayonlarni tushunish, tabiat va jamiyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni anglash ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi.

Shu sababli, bu kursni o'qitishda interaktiv metodlardan foydalanish ta'lim samaradorligini oshirishda, o'quvchilarning darsdagi faolligini kuchaytirishda muhim pedagogik yondashuv sifatida qaraladi.

So'nggi yillarda ta'lim tizimida interaktiv metodlarga bo'lgan talab juda ham ortib bormoqda. Bu esa, o'quvchilarning bilimlarni mustaqil o'rganib, izlanib, o'zlashtiruvchi shaxs sifatida shakllanishini ta'minlash zarurati bilan bog'liq hisoblanadi.

Asosiy qism

"Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi" kursi geografiya fanining muhim bo'g'ini bo'lib, unda Yer sharining tabiiy geografik xususiyatlari, iqlimiy zonalari, okean va qit'alardagi tabiiy jarayonlar, tabiiy resurslar va ekologik muammolar haqida chuqur bilimlar beriladi. Bu kurs o'quvchilarni tabiat qonuniyatlari, resurslardan oqilona foydalanish va ekologik muammolarni hal etishda faol ishtirok etishga tayyorlaydi.

Bu fanni samarali o'qitish uchun interaktiv metodlardan foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki, interaktiv metodlar yordamida o'quvchilar dars

jarayonida faol ishtirok etadi, o'z fikrini erkin bayon etadi va ilmiy muloqot olib borishga o'rganib boradi.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Hammamizga bir haqiqat ayon bo'lishi kerak: biz amaldagi rivojlanish sur'atlari bilan o'z oldimizga qo'ygan yuksak maqsadlarga erisha olmaymiz. Bugun zamon o'zgarmoqda, uning talabi, oldimizga qo'yayotgan vazifalari ortib bormoqda. Mana shunday murakkab sharoitda "sen-menga tegma, men-senga tegmayman" degan kayfiyat bilan ishlashning vaqti o'tdi. Biz "vaziyat yomon, vaziyat og'ir" deb bahona izlashga o'rganib qolganmiz. Lekin shu vaziyatni kim o'zgartiradi, kim izga soladi, degan savolni, keling o'zimizga beraylik. Vaziyatni o'zimiz, o'z aql-zakovatimiz, mehnatimiz bilan o'zgartirmasak, hech kim chetdan kelib bu ishni biz uchun rivojlantirib bermoqda» [1].

Demak, ta'lim tizimining barcha bosqichida bilimni puxta egallashni ta'minlash, o'qituvchi kasbiy mahoratini oshiradi. Ya'ni, geografiya ta'limida tashkiliy shakllar yordamida geografiya darslarida o'qituvchining pedagogik mahorati, ijodkorligi, o'z fanini puxta bilishi, uni yoshlarga o'rgatishning qulay metodlarini tanlay olishi kabi kasbiy sifatlarini ifodalaydi.

Ta'lim tizimida interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda, buning sabablaridan biri, shu paytgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy darslarda esa, ularning egallayotgan bilimlarni o'zlari izlab topishiga, mustaqil o'rganib tahlil qilishiga, hatto xulosalarni o'zlari keltirib chiqarishiga o'rgatadi. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan, interfaol metodlardan to'liq foydalaniladi.

Demak, hozirgi kunda har bir fanni, shu jumladan geografiya fanini o'qitishda turli metodlardan foydalangan holda o'tilsa juda yaxshi natija beradi va o'quvchilarda fanga bo'lgan qiziqishni rivojlantiradi. Bu esa o'z navbatida yetuk mutaxassislar, o'z kasbining ustasi bo'lib yetishishiga katta turtki bo'ladi.

Ayniqsa, Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi fanining har bir mavzusida interfaol metodlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Chunki, o'qitish metodlari, uning mazmuni, ahamiyati va vazifasi haqida juda ko'p fikrlar mavjud. Maqsadga erishishda muayyan to'siqni yengib o'tish uchun qo'llaniladigan chora-tadbirlar majmui metod deb ataladi. Ular umumlashtirilib ko'rsatilganda o'qitish metodini quyidagicha ta'riflash mumkin: o'qitish metodi - ta'lim maqsadlari uchun o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyatiga aytiladi [2].

Hozirgi kunda eng keng tarqalgan interfaol ta'lim metodlari quyidagilar hisoblanadi:

➤ **Interfaol metodlar:** "Keys-stadi" (yoki "O'quv keyslari"), "Blits-so'rov," "Modellashtirish," "Muammoli ta'lim" va h.k.

➤ **Interfaol ta'lim strategiyalari.** "Aqliy hujum," "Bumerang," "Galereya," "Zig-zag," "Zakovatli topqir" va h.k. interfaol ta'lim metodlari tarkibidan interfaol ta'lim strategiyalarini ajratishda guruhlar faoliyatini tashkil etishga yondashuv ma'lum ma'noda strategik yondashuvga qiyoslashga asoslanadi. Aslida bu strategiyalar ham ko'proq interfaol ta'lim metodlariga taalluqli bo'lib, ular orasida boshqa farqlar yo'q.

➤ **Interaktiv grafik organayzerlar:** "Baliq skeleti," "BBB," "Konseptual jadval," "Venn diagrammasi," "Insert," "Klaster," "Nima uchun?," "Qanday?" va h.k. Interaktiv grafik organayzerlarni ajratishda bunday mashqlarda asosiy fikrlar turli grafik shakllarda yozma ko'rinishda aks ettirilishiga asoslanadi. Aslida bu grafik organayzerlar bilan ishlash ham ko'proq interfaol ta'lim metodlariga taalluqli bo'lib, ular orasida boshqa farqlar yo'q.

Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi fanida interaktiv metodlardan foydalanishda qisqacha misollar:

“Aqliy hujum” Metodi

Masalan, “Afrika qit'asining iqlim xususiyatlari” mavzusi bo'yicha o'quvchilardan qisqa vaqt ichida imkon qadar ko'proq fikr aytish talab etiladi. Keyin ular tahlil qilinib, to'g'ri va mantiqiy xulosalar chiqariladi. Shu orqali:

- mavjud bilimlarni aniqlash,
 - qiziqishni oshirish,
- keyingi izlanishlarga motivatsiya berish mumkin.

“Debat” metodi

“Okeanlarni muhofaza qilishda inson faoliyati qanday rol o'ynaydi?” mavzusida ikki guruh bahs yuritadi. Bu orqali o'quvchilar ekologik muammolarga turli nuqtai nazardan qarashni o'rganadi. Bu orqali:

- tanqidiy fikrlash,
 - dalillash,
- jamoada ishlash ko'nikmalari shakllanadi.

“Klaster” metodi

Klaster (g'oya xaritasi) metodi orqali o'quvchilar **murakkab geografik jarayonlar va tushunchalarni tizimlashtirish** imkoniga ega bo'ladi. Masalan, “Okean oqimlari” mavzusida markazga “Atlantika okeani” so'zi yoziladi, undan esa shimoliy, janubiy, ekvatorial oqimlar kabi bo'linmalar chiqariladi. Bu o'quvchilarda mantiqiy fikrlash va vizual xotirani rivojlantiradi.

Keys-stadi (muammoli vaziyat)

“Arktikada muzliklarning erishi oqibatida yuzaga keladigan global ekologik muammolar” mavzusi muhokama qilinadi. O‘quvchilar muammoli vaziyatni tahlil qilib, yechim variantlarini ishlab chiqadi.

“Rolli o‘yinlar” metodi

Materiklar va okeanlarni o‘rganishda o‘quvchilarga turli rollar berish darsni jonlantiradi. Masalan:

- biri — geograf olim,
- biri — sayohatchi,
- yana biri — iqlimshunos sifatida chiqish qiladi.

Ular o‘z rollarini himoya qilarkan, ilmiy ma’lumotlarni hayotiy misollar bilan bog‘lashga harakat qiladilar. Bu jarayon o‘quvchilarni **ijodiy fikrlashga, muloqotga va hamkorlikka** o‘rgatadi.

Interfaol ta’lim metodlari ko‘pincha turli shakldagi o‘quv mashg‘ulotlari texnologiyalari bilan bir vaqtda qo‘llanilmoqda. Ushbu metodlarni qo‘llash mashg‘ulot ishtirokchilarining faolligini oshirib, ta’lim samaradorligini yaxshilashga xizmat qiladi.

Bugungi kun o‘qituvchisi chuqur bilim va yuksak pedagogik mahoratga ega bo‘lishi kerak. O‘quvchiga mavzu yoki masala ishlashni sodda qilib tushuntirishi muhim rol o‘ynaydi. Aks holda bir mavzuni o‘zlashtirmagan o‘quvchiga keyingilari qiyin bo‘lib ko‘rinaveradi. Natijada o‘quvchining ushbu fanga bo‘lgan qiziqishi so‘nib boradi. O‘qituvchi murakkab mavzularni sodda va bir necha usulda tushuntirsa, o‘quvchilarning mavzuga oid masalalar ishlashini va qiziqishini kuzatib, ularni qo‘llab-quvvatlasa, mavzularni o‘rganib borishi osonlashadi.

O‘quvchilar mavzuni va mavzuga oid masalalarni bir necha usulda ishlab o‘rgangandan so‘ng uning yechimi birgalikda tahlil qilinadi. Bunda o‘quvchilarning o‘zaro fikr almashishi, mavzu bo‘yicha nazariy bilimlaridan foydalangan holda masalani yechib ko‘rsatishi do‘stona raqobatni yuzaga keltiradi. Asosiysi, iqtidorli o‘quvchilar o‘zlashtirishi past bo‘lgan o‘quvchiga o‘rgatishi davomida o‘z bilimini yanada mustahkamlaydi. Shundagina o‘quvchi egallagan bilim ko‘nikmaga, ko‘nikmasi esa tajribaga aylanadi.

Xulosa

Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi kursini o‘qitishda interaktiv metodlardan foydalanish nafaqat bilimlarni samarali o‘zlashtirishni, balki o‘quvchilarda tahliliy, ijodiy va tanqidiy tafakkurni shakllantirishga ham xizmat qiladi. Pedagogik yondashuvlar asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni esa o‘quvchilarni mustaqil fikrlovchi, global kompetensiyalarga ega shaxs sifatida shakllantirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shavkat Mirziyoev «Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik –har bir rahbar faoliyatining kundali qoidasi bo'lishi kerak» T.: «O'zbekiston» 2017yil B.102
2. Vaxobov X., Gaypova R., Tursinov V. Geografiyani oqituv metodikasi. Nókis «Bilim» 2010 j.
3. U.Q.Tolipov, M.Usmonboeva – Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. «Fan» 2006 y.
4. Nizomiy nomidagi TDPU. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi. (metodik qo'llanma) 2013-y.
5. A.Soatov, R.Qurbomiyozov, M.Mirokmolov, E.Nazaralieva “Geografiya” o'qituvchilar ushun metodik qo'llanma “Tafakkur nashriyoti” Toshkent 2016-y.